

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

JALOLOV IQBOLJON JAMOLOVICH

***PAPAVER ANGRENICUM L.(NUDICAULE), ARUNDO DONAX L.*
O‘SIMLIKLARINING BIOLOGIK FAOL MODDALARI VA ULARNI
SINFLASH**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo
02.00.09 – Tovarlar kimyosi**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

UO‘T: 547.94+547.971+547.96+613.268+677.46+530.145

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Contents of the dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)

Jalolov Iqboljon Jamolovich:

Papaver angrenicum L.(nudicaule), *Arundo donax* L. o‘simliklarining biologik faol moddalari va ularni sinflash 5

Жалолов Икболжон Жамолович:

Биологически активные вещества растений *Papaver angrenicum* L. (nudicaule), *Arundo donax* L. и их классификация 29

Zhalolov Iqbolzhon Zhamolovich:

Biologically active substances of plants *Papaver angrenicum* L. (nudicaule), *Arundo donax* L. and their classification 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 61

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

JALOLOV IQBOLJON JAMOLOVICH

PAPAVER ANGRENICUM L.(NUDICAULE), ARUNDO DONAX L.
O‘SIMLIKLARINING BIOLOGIK FAOL MODDALARI VA ULARNI
SINFLASH

02.00.10 – Bioorganik kimyo
02.00.09 – Tovarlar kimyosi

KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Andijon – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/K187 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya ishi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.adu.uz) va «ZiyoNET» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar:

Aripova Salimaxon
kimyo fanlari doktori, professor

Ibragimov Alidjan Aminovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Botirov Erkin Xojiakbarovich,
kimyo fanlari doktori, professor

Abdullayev Shavkatjon Vaxidovich
kimyo fanlari doktori, professor

Abduganiyev Baxtiyor Yormaxamadovich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Bioorganik kimyo instituti.

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «15» 07 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel: (99877) 223-88-30, faks (99874) 223-84-33).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel: (99877) 223-88-30, faks (99874) 223-84-33), e-mail: agsinfo@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «1» 07 kuni tarqatildi. (2024-yil «1» 07 daqi 37 raqamli reestr bayonnomasi).



X. Isaqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

M.M. Mo'minjonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, kimyo fanlari doktori, dotsent

M.M. Xojimatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, k.f.d., v.b. professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda o‘simliklarning alkaloidlari, flavonoidlari, ularning hosilalarini ajratib olish, tarkibi, tuzilishi va biologik faolligini zamonaviy tadqiqot usullari yordamida aniqlash, hamda ulardan farmasevtikada, kimyo sanoatida, veterinariyada, qishloq xo‘jaligining turli sohalarida foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, alkaloidlar va flavonoidlar fiziologik faolliklari tufayli antibiotiklar, fungusidlar, gerbisidlar, dorivor preparatlar, ingibitorlar va ekologik toza davolovchi, profilaktik preparatlar ishlab chiqarishda hamda biopreparatlar sifatida qo‘llanilmoqda. Shuning uchun ham, *A. donax* L. va *P. angrenicum* L. o‘simliklaridan biologik faol moddalarni ajratib olish, ularning kimyoviy birikmalarini tuzilishini isbotlash, sintez qilish va biologik faolliklarini aniqlash usullarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda virus va saraton kasalliklarining kimyoterapiyasi uchun ekologik toza, organizm uchun zararsiz, dorivor preparatlar olish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, *A. donax* L. hamda *P. angrenicum* L. o‘simliklari biosintez qiladigan fizologik faol moddalarni individual holda ajratish usullarini ishlab chiqish, ularning kimyoviy tuzilishini va biologik faolligini aniqlashning zamonaviy usullarini yaratish, ajratib olingan moddalardan turli kimyoviy preparatlar, viruslarga qarshi antibiotiklar, saratonga qarshi ingibitorlar va sitotoksik preparatlar, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshiruvchi biologik preparatlar olish, ularni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda kimyo sanoati korxonalarining qayta rekonstruksiya qilish va qo‘shimcha sexlar tashkil etish, *A. donax* L. hamda *P. angrenicum* L. alkaloidlari va flavonoidlari asosida ekologik toza dorivor preparatlar olishning mavjud texnologiyalarini takomillashtirish, yangi uslublarni yaratishga alohida e‘tibor berilib, muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida¹ «mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zgartirishga» qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, *A. donax* L. hamda *P. angrenicum* L. alkaloidlari va flavonoidlari asosida inson organizmi uchun foydali birikmalar saqlagan, turli kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatini namoyon qiluvchi birikmalar saqlagan, organizm immunitetini ko‘taruvchi, bezarar, tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalarini yaratish, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalarni o‘rganish hamda TIF TN bo‘yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi», O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 25-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi» to‘g‘risidagi Farmoni.

PQ-3983-son, 2018-yil 17-yanvardagi «Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3479-son Qarorlari, 2019-yil 10-apreldagi «Respublikamizda 2019-2021 yillarda farmasevtika sohasini jadal rivojlantirishning keyingi chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5707-son Farmoni, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

Dorivor o‘simliklardan alkaloid, flavonoidlarni ajratib olish hamda biologik faolligini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan: Korean Medicine Clinical Trial Center (K-CTC); Korean Medicine Hospital Kyung Hee University; Gene Engineering Division, National institute of Agricultural Sciences, Rural Development Administration; Department of Science in Korean Medicine; KHU-KIST Department of Converging Science & Technology, and Bionanocomposite Research Center, Kyung Hee University; Department of Clinical Korean Medicine, Graduate School (Korea); Department of Secondary Metabolism, Leibniz Institute of Plant Biochemistry (Germaniya); M. V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti(Rossiya) kabilarda olib borilmoqda.

Dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash va qayta ishlash tadqiqotlari natijasida bir qator natijalar olingan: jumladan, shifobaxsh o‘simliklar asosida dorivor birikmalar olingan (Technische Universitat Chemnitz, Faculty of Natural Sciences, Institute of Chemistry Germaniya); dorivor o‘simlik navlari tarkibidagi makro- va mikroelementlarning miqdorini aniqlash usullari ishlab chiqilgan (Dipartimento di Chimica Industriale “Toso Montanari”, Università di Bologna, Italiya); shifobaxsh o‘simliklar asosida mikroelementlarga boy tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari olingan (Bialystok University of Technology, Faculty of Civil Engineering and Environmental Sciences, Department of Chemistry, Polsha); tarkibida tabiiy biologik faol birikmalar saqlagan o‘simlik ekstraktlari bilan oziq-ovqat mahsulotlarini boyitish texnologiyasi yaratilgan (Department of Inorganic Chemistry, Faculty of Pharmacy, University of Medicine and Pharmacy, Ruminya); Antivirus ta‘sirga ega birikmalarni o‘simliklardan ajratib olish usullari ishlab chiqilgan (State Key Laboratory of Coordination Chemistry, Nanjing University (Xitoy); ayrim mahalliy o‘simlik navlari tarkibidagi birikmalarning tarkibi va tuzilishi aniqlangan (O‘simlik moddalar kimyosi instituti, O‘zbekiston).

Dunyoda shifobaxsh o‘simliklar tarkibidagi makro- va mikroelementlar, alkaloidlar, flavonoidlar, vitaminlarni aniqlash asosida inson organizmidagi turli kasalliklarni davolash va oldini olish xususiyatiga ega tabiiy preparatlar ishlab chiqish, hamda ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <http://www.scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com> va boshqa manbaalar materiallari asosida tayyorlangan.

qator ustivor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, shifobaxsh o'simliklar tarkibidan biologik faol moddalarni ajratib olish; olingan birikmalarning tarkibi va tuzilishini fizik-kimyoviy metodlar yordamida aniqlash, ularning biologik faolligi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash; o'simliklar tarkibidagi turli biologik faollikka ega bo'lgan flavonoidlar, alkaloidlarni aniqlash va ajratib olish; oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibida makroelementlar saqlagan o'simlik ekstraktlari bilan boyitish; shifobaxsh o'simlik konsentratlari va ekstraktlari yordamida ayrim kasalliklarni davolash va oldini olish; shifobaxsh o'simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalar asosida oziq-ovqat qo'shilmalari olish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dorivor o'simliklardan biologik faol moddalar ajratib olish va ularni tuzilishini isbotlash hamda ular asosida yangi dori vositalarini yaratish bo'yicha jahonda ko'plab olim va amaliyotchilar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, Ahmed M.J., Al-Snafi A.E., Ana M.L., Chaudhuri R.K., Yamamoto K, Kimura Y, Shibata K, Hu W, Minagawa K, Hasumi K., Dekorne J., Egamberdieva D., Ghoshal S., Hong, Y., H.Y. Hu., Jia, A.L., X.Q. Ding, D.L., Pansuksan, K., Piluzza, G., Sagir, C., Z.A. Everest., Sodiqov A.S., Kwangho Song, Jae-Hyeon Oh, Zuparova K.M., Anne-Christin Warskulat, Aripova S.F., Ibragimov A.A., Xujaev V.U. va boshqalar o'simliklardan olingan alkaloidlarni tuzilishi, kimyoviy o'zgarishlari, zamonaviy fizik tadqiqot usullarni qo'llash orqali yangi ma'lumotlar bilan boyitish, biologik faol birikmalar asosida dorivor preparatlarni olish texnologiyasi ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Shu bilan birga alkaloid va flavonoidlarni o'simliklardan ajratib olish orqali qishloq xo'jaligi va tibbiyotda foydalanish mumkin bo'lgan biologik faol moddalarni olish; ushbu jarayonlarga yangi avlod dori preparatlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutida, Bioorganik kimyo institutlarida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Fargona davlat universitetining 2020-2025-yillardagi istiqbolli rejasi asosidagi "Mahalliy o'simliklardan fiziologik faol moddalar ajratish va tadqiq etish" ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Papaver angrenicum* L.(nudicaule), *Arundo donax* L. o'simliklarining kimyoviy tarkibini aniqlash, ajratib olingan birikmalarning tuzilishi va biologik faolligini aniqlash va TIF TN bo'yicha sinflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

P. angrenicum L., *A. donax* L. o'simliklarini O'zbekistonni turli mintaqalaridan terish va yangi xom-ashyo manba'alarini aniqlash;

Alkaloidlar yig'indisidan individual toza holda moddalarni ajratib olish, tuzilishini tadqiq etish, ma'lum alkaloidlarni identifikasiya qilish, yangi individual alkaloidlar va flavonoidlarni kimyoviy tuzilishini UB, IQ spektroskopiya, mass-spektrometriya, rentgen strukturaviy analiz, ^1H va ^{13}C yadrolari bo'yicha YaMR

ma'lumotlari, shu jumladan, 1D, 2D eksperimentlari gomo- va geteroyadroviy rejimlari ma'lumotlari va kimyoviy transformatsiyalar yordamida aniqlash;

Arundo donax L. tarkibidan ajratib olingan indol, bisindol tuzilishli alkaloidlarini, xususan donaksin, arundamin, arundanin va arundazinlarni strukturaviy, elektron, spektroskopik va elektrostatik xususiyatlarini kvant kimyoviy hisoblash yo'li bilan taxlil qilish;

A. donax L. o'simligidan ajratib olingan alkaloidlar va alkaloidlar fraksiyalarini, lipid, polisaxarid, endofit zamburug'i va bakteriyalarini kimyoviy tarkibini hamda biologik aktivligini zamonaviy farmakologik va mikrobiologik usullarida tadqiq etish va isbotlash;

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekistonni turli xil tuproq va iqlim sharoitida o'suvchi *Papaver angrenicum* L. (nudicaule), *Arundo donax* L., o'simliklarining ildiz, ildiz poya, bargi, tana hamda guli olingan.

Tadqiqotning predmeti mahalliy o'simliklarning alkaloidlari, flavonoidlari, hamda endofit bakteriyalari va ular asosida olingan biologik faol moddalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyani bajarish jarayonida, IQ, ^1H YaMR, ^{13}C YaMR, 2D YaMR ^1H - ^1H korrelyasion COSY, NOESY usullari, 2D YaMR ^1H - ^{13}C korrelyasion HMQC, HMBC usullari, rentgen tuzilish tahlil usuli, mass-spektrometriya usullari, organik sintez hamda YuSSX va YuQX, adsorbsion xromatografiya usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor *P. angrenicum* L. o'simligidan yangi pangrenin deb nomlangan alkaloid ajratib olingan va uning tuzilishi kimyoviy hamda uskunaviy usullarda isbotlangan.

A. donax L. o'simligini sakkizta mintaqa o'sish joylaridan turli vegetatsiya davrlaridagi alkaloidlar saqlash dinamikasi aniqlangan va YuSSX metodi yordamida sifat analizi yordamida aniqlangan.

A. donax L. o'simligi ildiz qismi alkaloidlar yigindisidan yangi bis-indol alkaloid ajratib olingan va arundazin deb nomlandi, uning tuzilishi 3`-(N-dimetilaminoetil)-5`-gidroksi-4`-[3-(N-dimetilaminoetil-3-gidroksi-)-oksoindol-1-il] indol ekanligi isbotlangan;

Ilk bor bufotenin alkaloidining sintez qilingan yodmetilati monokristalining eng maqbul strukturasi rentgen strukturaviy analiz usulida aniqlangan;

A. donax L. o'simligi ildiz ekstraktidan yangi azetin tarkibli modda ajratib olingan va uning tuzilishi 3-vinilazetid-2-on strukturasi mos ekanligi isbotlangan;

A. donax L. o'simligi yer ustki qismi alkaloidlar yigindisi asosida Tetiklantiruvchi ta'sirga ega vosita "Donsumin" preparatini yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

A. donax L. o'simligi yer ustki qismi alkaloidlar yigindisi asosida Tetiklantiruvchi ta'sirga ega vosita "Donsumin" preparatini olish usuli uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining ixtiroga patenti olingan (№ IAP 7678, 25.04.2024).

A. donax L. o‘simligining ildizidan ajratib olingan individual alkaloid asosida metall konstruksiyalarning korroziyaga qarshi chidamliligini oshiruvchi “Arundozetin” nomli yangi preparat ishlab chiqilgan.

A. donax L. asosida tayyorlangan “Arundazetin” preparatlari uchun tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi dissertatsiya ishida zamonaviy fizik tadqiqot usullari (IQ, PMR, YaMR ^{13}C va 2D YaMR ^1H - ^1H korrelyasion NOESY usullari, 2D YaMR ^1H - ^{13}C korrelyasion HMQC, HMBC usullar, hamda rentgen tuzilish tahlil usuli, mass-spektrometriya, element analiz, gaz-suyuqlik xromatografiya, yupqa qatlam xromatografiya tadqiqot usullari jamlanmasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *A. donax* L. va *P. angrenicum* L. o‘simliklaridan birinchi marotaba 3 ta yangi, 20 ta ma’lum alkaloid va 4 flavonoidlar ajratib olinganligi, ularning tarkibi va tuzilishi infra-qizil spektroskopiya, yadro magnit rezonansi, ^{13}C va 2D YaMR ^1H - ^1H korrelyasion NOESY usullari, 2D YaMR ^1H - ^{13}C korrelyasion HMQC, HMBC usullar, hamda rentgen struktur analiz usullari yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *A. donax* L. va *P. angrenicum* L. o‘simliklaridan alkaloidlar va flavonoidlarni ajratib olishning ekstraksion usullari takomillashtirilganligi, yordamida *A. donax* L. va *P. angrenicum* L. o‘simliklaridan olingan birikmalarning saratonga qarshi dori vositalarini olishda foydalanilganligi, mazkur o‘simliklari asosida nootropik ta’sirga ega bo‘lgan “Donsumin” preparati, hamda ushbu o‘simliklardan ajratib olingan “Arundozetin” ekstrakti uchun TIF TN bo‘yicha yangi xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *A. donax* L. va *P. angrenicum* L. o‘simliklaridan Ajratib olingan alkaloidlar va ularning hosilalarining tuzilishi, biologik faolligini aniqlash hamda TIF TN sinflash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Tadqiqot natijasida *Arundo donax* L. o‘simligidan ajratib olingan arundamin, arundavin, arundafin alkaloidlari va *Papaver angrenicum* L. o‘simligidan ajratib olingan pangrenin alkaloidi ma’lumotlari “Dictionary of Alkaloids” va “Natural Compounds Alkaloids” xalqaro lug‘atlariga kiritilgan (John Buckingham, Keith H. Baggaley, Andrew D. Roberts, László F. Szabó. “Second edition 2010 by Taylor and Francis Group, LLC CRC Press is an imprint of Taylor & Francis Group, an Informa business” (227, 228, 1025, 1026, 1856 betlar) xalqaro lug‘ati va Shakhnoza S. Azimova, Marat S. Yunusov. “Springer Science+Business Media, New York 2013” (35, 259, 260, 261, 262, 263, 264, 265, 272, 426 betlar) xalqaro lug‘ati). Natijada, yangi alkaloidlarni tuzilishi va xossalari to‘g‘risida yangi ma’lumot olish imkonini bergan;

Arundo donax L. o‘simligidan ajratib olingan “arundazetin” Muborak gazni qayta ishlash MCHJ korxonasi amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekneftgaz” AJ Muborak gazni qayta ishlash zavodining 2023 yil 27 noyabrdagi 854/GK-11-son ma’lumotnomasi). Natijada neft-gaz sanoati metall konstruksiyalari va qurilmalarining ekspluatatsiya muddatini oshirish imkonini bergan.

“Arundazetin” moddasi uchun tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha quyidagicha: 2939 79 000 3 kod raqami ishlab chiqilgan hamda davlat bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Markaziy bojxona laboratoriyasining 2024 yil, 2 martdagi № 17\05-24-0526 son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur turdagi moddalarni eksport va import qilishda ulardan undiriladigan boj to‘lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ilmiy natijalari 12 ta, jumladan 9 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy simpozium, konferensiyalarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta patent O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan 14 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy nashrlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, hulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 193 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob‘yektlari hamda predmetlari tavsiflangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchiligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosalar qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Arundo donax* L. o‘simligining kimyoviy komponentlari va ularning biologik faolligi” deb nomlangan **birinchi bobida** ushbu turkumga mansub o‘simlik turlaridan ajratilgan alkaloidlar, flavonoidlar, steroidlar, tabiiy birikmalarining tasnifi, tuzilish xususiyatlari, kimyoviy va biologik xossalari bo‘yicha ma’lumotlar bayon etilgan. “*P. angrenicum* L. o‘simligining kimyoviy komponentlari va ularning biologik faolligi” nomli ikkinchi qismida ushbu turdan ajratilgan birikmalarining tuzilishi va konformatsiyasini aniqlash, individual hamda yig‘indi holdagi alkaloidlar va fenol birikmalarining biologik faolliklarini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar keltirilgan va muhokama qilingan.

Dissertatsiyaning “*Papaver angrenicum* L. o‘simligini biologik faol moddalari” deb nomlangan **ikkinch bobida**, *Papaver angrenicum* L. o‘simligidan ajratib olingan alkaloidlar, flavonodlar va mikro-makro elementlari muhokama qilingan.


Dissertatsiyaning “*Arundo donax* L., o‘simligini biologik faol moddalari” deb nomlangan **uchinchi bobida**, *Arundo donax* L., o‘simligidan ajratib olingan alkaloidlar, lipidlar, polisaxaridlar, oqsil va ularni biologik faolligi muhokama qilingan.

Dissertatsiyaning “*Arundo donax* L. dan ajratilgan bisindol halqa tutgan alkaloidlarning nazariy hisoblangan ichki molekulyar o‘zaro ta’sirlari va optik xususiyatlari” deb nomlangan **to‘rtinchi bobida** *Arundo donax* L. dan olingan uchta ma’lum ikki indol halqasini o‘z ichiga olgan alkaloidlarning, ya’ni arundamin, arundanin va arundasinlarni strukturaviy, elektron, topologik, spektroskopik va elektrostatik xususiyatlari, hisoblash yo‘li muhokama qilingan.

Dissertatsiyaning “Tajribaviy qism” deb nomlangan **beshinchii bobida** oldingi boblarda muhokama qilingan komyoviy moddalarni ajratib olish va tuzilishini isbotlash usullari ma’lumotlari muhokama qilingan.

1. Pangrenin alkaloidini tuzilishi

Alkaloid oq kristal s.h. 281-283°C. Alkaloidning IQ-spektrida aktiv vodorod va aromatik halqa yutilish chizig‘i ko‘rindi. YaMR-spektr ma’lumotlariga ko‘ra alkaloid 3 xil aromatik metoksil guruh tutib, singlet holda bo‘lib har biri proton birligi 4,14, 4,06, 4,02 m. u. bo‘ladi. Aromatik protonlar sohasida 2 xil: 1 protonli va 2 – protonli signal 6.67. (1 H, s), 6.06 (2 H, s), 5.07 (1 H, s) m.u. signallar mavjud. Metilendioksi guruh protonlarida 4,80 m.u. sohada 2 protonli singlet, 1.8 – 2.8 m.u. oralig‘ida metilen protonlari qiyin ajraladigan multiplet holda uchraydi.



1-rasm: Pangrenin alkaloidining kimyoviy va fazoviy tuzilishi

Lekin spektr ma’lumotlari to‘plamidan olgan ma’lumotlarni to‘liq tasdiqlash maqsadida biz alkaloidning monokristalini rentgenostruktur (RTA) usuli bilan tekshirdik RTA ma’lumotlariga ko‘ra bu modda protoberberin asosli tuzi tipidagi diizoxinolin alkaloidi ekanligini isbotladik.

Pangrenin tuzilishidan ko‘rinadiki, u protoberberin skelet alkaloid molekulasida kationi va nitrat (nitrat kislota qoldig‘i) anionidan tuzilgan tuzlar kompleksidan iborat. Bu ionlar kristalida o‘zaro vodorod bog‘ tipidagi kislorod – vodorod bog‘ bilan bog‘lanadi. C 19 holatidagi gidroksil guruh (O9 N), nitrat kislota qoldig‘iga (0,5 + x, 0,5 – u, 0,5 + z) O2 va O1 atom tomoni bilan yaqinlashadi. Vodorod bog‘ O2...N -O9 quyiidagi parametrlarga ega: oraliq O2...O9 teng 3 06 Å, O2 ... N – O9 1,89 Å, burchak O2... : - O9 161° ga teng lekin vodorod bog‘ (3 18, 2. 24, 132) ga nisbatan O1...N-O9 bo‘shroq. Bundan tashqari musbat zaryadlangan atom N7 yaqinida molekulararo kuchsiz C8 – N .. O3 (3.24, 2.33, 1.65) bog‘lar mavjud. U mekambrididan farq qilib, N7 atom tekis konfiguratsiyaga ega (valent burchaklari 359,6° ga teng) va to‘g‘ridan – to‘g‘ri molekulararo ta’sirlashishda ishtirok etmaydi. Pangrenin kompleks kationida 5 a’zoli geterosikl konvert formasida S 16 bo‘lib birlashgan. To‘yinmagan olti a’zoli geterosikl molekulaning 2 silliq qismini

bog'laydi, S₂ simmetriyali tvist – vanna formasiga ega kuzatishlardan ko'rinadiki, tekis fragmentlar kondensatorlangan 5 a'zoli aromatik halqa va geteroaromatik halqa – boshqa aromatik halqalar 14,7° burchak ostida joylashgan. Harakatchan gidroksil va metoksil gruppalarining joylashuvi, kuzatilayotgan mekambridin molekulyar tarkibi bilan o'xshashdir (1-rasm).

1-jadval

Pangreninning ¹H va ¹³C YaMR spektr ma'lumotlari
(CDCl₃+CD₃OD, J/Gs, 400 MGs)

Atom C	δ _C	δ _H (J/Gs)	Atom C	δ _C	δ _H (J/Gs)
1	142.14		11	156.04	
2	136.85		12	128.21	
3	151.62		12a	135.39	
4	103.17	6.67, s	13	121.65	9.26, s
4a	132.06		13a	135.77	
5	28.47	3.15, t (6.1)	13b	112.89	
6	55.19	4.82, t (6.1)	12-CH ₂ OH	54.57	5.07, s
8	146.02	9.76, keng.s	2,3-OCH ₂ O	102.06	6.06, s
8a	124.58		1-OCH ₃	60.19	4.14, s
9	108.01	7.75, s	10-OCH ₃	56.50	4.06, s
10	155.58		11-OCH ₃	62.24	4.02, s

Nitrat ioni taxminan tekis tuzilishga ega (±0.03 Å), valent burchaklar N 1 358, 6° ga teng. Valent bog'larning uzunligi N₀ - 01 (1.169 (9) Å) qolgan 2 N-02 (1.224 (11) va 1.223 (10) Å bog'lar uzunligiga nisbatan qisqa. Lekin 3σ tajriba xatoliklari 1-jadvaldagi kabi bo'lib va umumiy qabul qilingan biriklardan farq qilamaydi.

Shunday qilib IQ, mass-spektroskopiya, ¹H va ¹³C yadrolari bo'yicha YaMR, DEPT, rentgenostruktur analiz (RTA) ma'lumotlari asosan tuzilishi isbotlandi va unga Pangrenin deb nom berildi. Pangrenin tuzilishi Kembrij kristalografik ma'lumotlar markazida quyidagi raqam bilan ro'yxatga olindi (CCDC 273902) va yangi alkaloid ekanligi e'tirof etildi.

Papaver angrenicum flavonoidlar yigindisidan individual moddalar ajratish

Etilatsetat fraksiyasiyasidan individual moddalarni ajratib olish adsorbtsion kolonka xromatografiya usulida silikagel bilan amalga oshirildi. Etilatsetatli fraksiya sorbent-fraksiya nisbati 1:20 bo'lgan silikagelli kolonkaga joylandi. Etilatsetatli fraksiyani yuvish dastlab xloroform-metanolning 50:1 nisbatdagi sistemasi orqali amalga oshirildi va 10 ta subfraksiya olindi. Olingan subfraksiyalar LH-20 sefadeks yordamida 80%-li etanol bilan xromatografiya qilindi va **1 (Apigenin)**, so'ng etilatsetatli fraksiya xloroform:metanolning 30:1 sistemasidan **2 (Lyuteolin)**, shu ketma-ketlikda 20:1 va 9:1 nisbatdagi xloroform:metanol sistemasidan mos ravishda **3 (Isokvertsetin)** va **4 (Izorametin 3-O-glyukopiranozidi)** flavonoidlar ajratib olindi va tuzilishi isbotlandi.

Papaver angrenicum o'simligidan olingan ekstraktlarning patogen bakteriya va zamburug'larga qarshi in vitro faolligi

Ekstraktlar ikkita gramm-musbat bakteriyalarga - *Bacillus subtilis* (O'zMT – 5) va *Staphylococcus aureus* (O'zMT 25923), ikkita gramma-manfiy bakteriyalar, *Pseudomonas aeruginosa* (O'zMT 27879), *Escherichia coli* (O'zMT 27879)-ga

qarshi antibakterial faollik uchun sinovdan o'tkazildi va bitta patogen zamburug'lar *Candida albicans* (O'zMT - 247) va achitqi *Pichia anomala* (O'zMT) bir shtammi uchun ham sinovlar olib borildi.

Bizdagi olingan natijalarga ko'ra, *Papaver angrenicum* o'simligining etilasetatli ekstrakti gramm-musbat bakteriya shtammlariga samarali ta'sir ko'rsatdi. Olingan *Bacillus subtilis* va *Staphylococcus aureus* shtammlariga qarshi 19 va 15 mm ingibirlash maydonlari qayd etildi. O'simlikning xloroformli ekstrakti *Staphylococcus aureus* va *Escherichia coli* shtammlariga qarshi mos ravishda 10 va 13 mm ingibirlash maydonini namoyon qildi. Ekstraktlardan faqatgina xloroformli ekstrakt patogen zamburug' *Candida albicans* ga qarshi 17 mm ingibirlash maydoniga ega bo'lgan faollikni ko'rsatdi. Olingan natijalar asosida aytish joyizki *Papaver angrenicum* o'simligi kelajakda yangi samarali antibiotik vositalar yaratishda muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval

Papaver angrenicum L. o'simligidan olingan ekstraktlarning patogen bakteriya va zamburug'larga qarshi *in vitro* faolligi


№	Namunalar	Ingibirlanish diametri				
		Gramm-musbat bakteriyalar		Gramm-manfiy bakteriyalar		Zamburug'
		<i>Bacillus subtilis</i>	<i>Staphylococcus aureus</i>	<i>Escherichia coli</i>	<i>Pseudomonas aeruginosa</i>	
1	Etilatsetat fr.	19	15	N/A	N/A	17
2	Xloroform fr.	N/A	10	13	N/A	N/A
3	Ampitsilin/su;baktam (10 µg+10 µg disc)	30	30	-	-	-
4	Gentamitsin (10µg/disc)	-	-	22	25	-
5	Flyukonazol (25 µg/disc)	-	-	-	-	33

Izoh: (N/A) - Ingibirlash mavjud emas.

***Arundo donax* L. o'simligini biologik faol moddalari.**

***A. donax* L. o'simligini alkaloidlar saqlash dinamikasi**

O'zRessining sakkizta hududidan *A. donax* L. o'simlik xomashyosi turli xil vegetatsiya davrlarida terilgan namunalarida olingan natijalar keltirildi (1-2-diagrammalar).




1-diagramma: *A. donax* L. ni yer ustki qismini alkaloidlar saqlash dinamikasi.

O'zbekiston hududida o'sadigan *Arundo donax* L. o'simligi alkaloidlarining fizik-kimyoviy xossalari

№	Alkaloidlar nomi	Mol. massa	tarkibi	S.h., °C
A. donax L. o'simligini yer ustki qismi alkaloidlari				
1	Donaksin	174	C ₁₁ H ₁₄ N ₂	134-135
2	Dezoksivazisinon	170	C ₁₁ H ₁₀ N ₂	110-112
3	Donaksina N-oksidi	190	C ₁₁ H ₁₄ N ₂ O	135-136
4	Fenil- β-naftilamin	219	C ₁₆ H ₁₃ N	1109-110
5	Donin	342	C ₁₉ H ₂₂ N ₂ O ₄	126-128
6	Donaksaridin	206	C ₁₁ H ₁₄ N ₂ O ₂	178-180
7	Donaksarin	232	C ₁₃ H ₁₆ N ₂ O ₂	218-220
8	Donaksanin	218	C ₁₂ H ₁₄ N ₂ O ₂	162-164
9	Donaksamin	160	C ₁₀ H ₁₂ N ₂	178-179
10	Arundin	246	C ₁₇ H ₁₄ N ₂	165-166
11	Ardin	260	C ₁₈ H ₁₆ N ₂	Amorf
12	Arundinin	376	C ₂₃ H ₂₈ N ₄ O	148-149
13	Bufotenin	204	C ₁₂ H ₁₆ N ₂ O	Amorf
A. donax L. o'simligini yer ostki qismi alkaloidlari				
14	N-metil-tetragidro-β- karbolin	186	C ₁₂ H ₁₄ N ₂	216-218
15	Arundamin	376	C ₂₃ H ₂₈ N ₄ O	104-105
16	Arundanin	390	C ₂₄ H ₃₀ N ₄ O	198-199
17	Arundasın	418	C ₂₅ H ₃₀ N ₄ O ₂	192-193
18	Arundarin	388	C ₂₄ H ₂₈ N ₄ O ₂	250-252
19	Arundavin	392	C ₂₃ H ₂₈ N ₄ O ₂	230-232
20	Arundafin	408	C ₂₃ H ₂₈ N ₄ O ₃	205-207
21	Arundazin*	422	C ₂₄ H ₃₀ N ₄ O ₃	239-240

Izoh: * - yangi alkaloid.

Ildiz



2-diagramma: *A. donax* L. ni yer ustki qismini alkaloidlar saqlash dinamikasi


A. donax L. o‘simligidan jami alkaloidlarining xromotografiya va rexromotografiya qilish orqali o‘simlik yer ustki qismidan 13 ta yer ostki qismidan 8 ta asos bitta azetidindan tarkibli moddalar ajratib olindi shulardan 2 tasi yangi ekanligi isbotlandi.

Bufotenin alkaloidi yodmetilati sintezi, kristal va molekulyar tuzilishi

Alkaloidning metanoldagi eritmasi metilyodid bilan reaksiyasidan olingi, ($C_{13}H_{19}N_2O \cdot I$, mp. 211-212 °C) kristallar shaffof, cho‘zilgan prizma shakliga ega. Yod metilatining monokristalini rentgen strukturaviy tahlili (RTT) qilindi.

X-nurlarining diffraksiya ma‘lumotlariga ko‘ra alkaloid yodometilatining fazoviy tuzilishi 2-rasmda ko‘rsatilgan. Bundan kelib chiqadiki, alkaloidning yodmetilati indol halqasining azot atomida emas yonzanjirning dimetilaminoetil guruhi azot atomida metillanish sodir bo‘ladi. Alkaloid molekulasida (kation) bisiklik psevdaromatik indol halqasi tekis $\pm 0,018$ Å aniqlik bilan. Bog‘lanish uzunligi va valent burchaklari *A. donax* L. dan ajratilgan ma‘lum bis-indol alkanlarning bufotenin qismida kuzatilgan qiymatlarga yaqin [7-13]. Kristall strukturasi jamlangan ma‘lumotlari tahlili bufotenin molekulasida O-H...I va N-H...I tipidagi molekulararo H-boglanish mavjudligini ko‘rsatadi. Yod ion H-bog‘lari orqali alkaloid molekularini (kationi) *a* o‘qi bo‘ylab 2_1 o‘qlariga vintsimon bog‘laydi. O1-H...I ulanish parametrlari quyidagicha: dis-pozitsiyalari I...O1- 3,494, O1-H...I -2,41 Å va burchak O1-H...I-168,1°. Biroq, I ... H-N1 bogi oldingisiga qaraganda zaifroq, buni uning parametrlari tasdiqlaydi: 3.764, 3.07 va 138.9. Kristall strukturada ushbu H-bog‘lar tufayli *a* o‘qi bo‘ylab cheksiz zanjir hosil bo‘ladi (3-rasm).


Elementar yacheyka parametrlari va difraksiyon nurlar intensivligi to‘rt aylanal STOE Stadi difraktometrda aniqlandi ($\omega/2\theta$ -scan). MoK α -nurlanishidan foydalanilgan (grafitli monoxromator): $a=8,541(2)$, $b=12,619(3)$, $c=13,501(3)$ Å, $V=1455,1(5)$ Å³, $\rho=1,580$ g/sm³, fazoviy guruh P2₁2₁2₁, Z=4. Nur yutilishi bo‘yicha tuzatish kiritilmagan.



2-rasm: Bufoteninning tuzilishi va uning yodmetilatining fazoviy tuzilishi

3-rasmda ko‘rsatilgan struktura SHELXS-97 dasturi [14] yordamida bevosita usullar bilan yechilgan va SHELXL-2014/7 dasturi [15] yordamida aniqlashtirilgan. Vodород bo‘lmagan barcha atomlar to‘liq matritsali eng kichik kvadratlar usuli (F2 bo‘yicha) bilan anizotropik aniqlandi. Vodород atomlarining joylashuvi geometrik

tarzda aniqlanadi va $U_{iso} = nU_{eq}$ bo'lgan o'zgarmas izotrop siljish parametrlari bilan aniqlashtirildi, bu erda metil guruhlar uchun $n=1,5$ va qolganlari uchun $n=1,2$, U_{eq} esa tegishli uglerod atomlarining ekvivalent izotropik siljish parametridir. Gidroksil guruhining vodorod atomi elektron zichlikdagi farqlar sintezidan topildi va izotropik tarzda aniqlashtirildi. Yakuniy farqlanish koeffitsientlari $I > 2\sigma(I)$ sharti bilan (1807 refleksi) $R1 = 0,0385$, $wR2 = 0,0772$ qiymatlarmi, butun massiv bo'yicha (2011 refleksi) $R1 = 0,0311$, $wR2 = 0,0715$ qiymatlarni tashkil etdi.



3-rasm: Bufotenin yodmetilati molekulasi kristallarini taxlanishi

Bufotenin alkaloidi O'zbekistonda o'suvchi *A. donax* L. (Poaceae) o'simligining yer ustki qismining umumiy yig'indisidan ilk bor ajratib olingan. Bufotenin yodmetilatining tuzilishi Kembridj kristalografik ma'lumotlar markazida quyidagi raqam bilan (CCDC 253048) ro'yxatga olingan.

Arundazin alkaloidini tuzilishi

Yangi bisindol arundazin alkaloidi oq kristall modda bo'lib, s.h. 156-157°C, $C_{24}H_{30}N_4O_3$ tarkibiga ega.

Arundazinning IQ spektrida faol vodorodning (NH, OH) $3320-3200\text{ cm}^{-1}$, karbonil amidi 1630 cm^{-1} va aromatik halqaning ($1610, 1520\text{ cm}^{-1}$) yutilish sohalari mavjudligi qayd etilgan. Arundazinning mass-spektri m/z 422 M ($M+1$)⁺ molekulyar ionining cho'qqisi, shuningdek, bir qator fragment ionlari mavjudligini ko'rsatadi. Mass-spektrida m/z 391 (15%), 372 (10%) m/z 332 (100%) bo'lgan ion cho'qqisi arundazinning spektridagi muhim ionlardan biri bo'lib, arundazin tuzilishining bis-indol xususiyatini ko'rsatadi. Kam massali sohada indol halqasiga xos bo'lgan m/z 207, 259, 273 bo'lgan ionlarning cho'qqilari qayd etilgan. Arundazinning berilgan spektral xarakteristikalarini, uning yuqori molekulyar og'irligi, bu o'simlikning bisindol alkaloidlari (arundinin, arundamin, arundin, arundarin, arundavin, arundafin) bilan qiyosiy tahlili dimerlik tabiatini ko'rsatadi.

Arundazin PMR spektrlari signallarini to'plami va joylashuvi nuqtai nazaridan arundafin spektriga juda yaqin. H_6 va H_7 protonlari signallari orto-almashtirilgan benzolning to'rt spinli tizimiga mos ravishda δ 7.35 va δ 6.90 m.u. da $J=8.7\text{ Gs}$ bo'lgan AB-Spin tizimining ikkita dubleti bilan namoyon bo'ladi. H_2 indol yadrolarining besh a'zoli siklining yagona signalni mos ravishda δ 6.90 m.u. da bitta signal hosil bo'lgan. To'rt spinli orto-joylashtirilgan protonlarni $H_4 \div H_7$

tizimi to'rtta signal bilan ifodalanadi, ularni arundafinning PMR spektriga nisbatan va ushbu signallarning shaklini tahlil qilingani orqali tasniflash mumkin.

Arundafinda bo'lgani kabi, eng chapda bir protonli dubletlar H4, H7 protonlariga δ 7.68 m. u., 6.50 m.u. ($J=7.5$ Gs), δ 7.25 va 7.20 m. u. ($J=7.5$ Gs) da ikkita triplet ko'rinishidagi protonlar signallari H6 va H5 protonlariga tegishli. PMR spektrining quyi qutbli qismida (δ 9.01 m.u.) NH-protonning singlet signali namoyon bo'ladi. Signalning bunday noodatiy o'zgarishining sababi arundazin molekulasi stereokimyosining o'ziga xos xususiyati - H7 protoni, N-dimetil guruhlari, aromatik soha ustiga tushadi va signalning diamagnit siljishiga olib keladi. Spektrning alifatik qismida arundafinga nisbatan ko'proq o'zgarishlar kuzatilmaydi. Arundafin spektridan farqliroq molekulaning birinchi yarmida azot N10ga xarakterli signalning 6 protonli signalga o'zgarishi 10NHCH_3 metil guruhi o'rnida N10 dimetil guruhiga almashiganidan dalolat beradi. Spektrning alifatik qismidan 8 metilen proton signallariga ega bo'lgan 5 ta mustaqil bo'lib metilen protonlari signallari ko'rinadi (4-jadval). 8` hamda 9` protonlari δ 2.52 va 2.61 m.u. da ikkita ikki protonli multipletlar va 2.61 m.u (dt), 2,19 m.u. (td) da ikki protonli signallari COSY spektrida yopiq, Spin-bog'langan tizimni ko'rsatadi, bu juftliklarning har birida deyarli ekvivalent geminal protonlar mavjud. HSQC spektri, shuningdek, ushbu metilen juftlaridagi gemiapol protonlarining ekvivalentligini tasdiqlaydi.


Uglerod spektrining eng muhim o'zgarishi C10 uglerod signalining δ 42.25 m. u. da paydo bo'lishidir. Boshqa barcha signallarning holati arundafinning PMR spektriga yaxshi mos keladi.

4-jadval

Arundazinning ^1H va ^{13}C YaMR spektridagi atomlarining kimyoviy siljishlarining qiymatlari va spin-spin tasirlashuvi

Atom	^1H	SSTK (Gs)	^{13}C	Atom	^1H	SSTK (Gs)	^{13}C
2			180.38	2'	6.92	s	124.00
3			75.20	3'			111.47
3a			130.88	3'a			124.55
4	7.45	d, 7.5	124.24	4'			109.94
5	7.20	t, 7.5	124.94	5'			148.07
6	7.25	t, 7.5	130.17	6'	6.90	d, 8.7	112.70
7	6.50	d, 7.5	110.74	7'	7.35	d, 8.7	113.98 1
7a			144.06	7'a			133.101
8	2.54, 2,70	M dt, 12.2, 8.3	35.93	8'	2.52, 2.61	M M	25.14
9	2.30, 2.46	dt, 12.2, 8.3, M	47.77	9'	2.13, 2.19	dt, 11.4, 5.8 t,d 11.4, 4.4	60.61
10	2.30	s	42.25	10`	1.90	s	44.17

Arundazinning kimyoviy tuzilishi UB, IQ, mass-spektrometriya, ^1H va ^{13}C yadrolari bo'yicha YaMR ma'lumotlari, shu jumladan 1D, 2D eksperimentlari gomo- va geteroyadroviy rejimlari ma'lumotlari va kimyoviy transformatsiya (Gess bo'yicha metillanish) asosida arundazinning tuzilishi 3'-(N-dimetilaminoetil)-5'-gidroksi-4'-[3-(N-dimetilaminoetil-3-gidroksi-)-oksoindol-1-il] indol ekanligi isbotlandi (4-rasm).



4-rasm. Arundazin tuzilishi

Arundazetin alkaloidining tuzilishi

Yangi Arundazetin azetidindagi birikma R_f 0.2 (sis. xloroform-metanol, 4:1) suyuqlanish harorati $239-240^\circ\text{C}$, $[\alpha]^{22}_D +175^\circ$ ($c=0.8$, DMCO) DMCO da yaxshi eriydi, metanol, xloroform, benzol, asetonda deyarli erimaydi.

Arundazetin IQ spektrida 1678.03 cm^{-1} karbonil, faol vodorodning (NH) va C-H=C-H boglar yutilish sohalari mavjudligi qayd etilgan.


Arundazetin YaMR ^1H spektri 3.32-3.99 va 5.09-5.76 m.u. ikki to'plam signallar mavjud. Ion zanjir vinil guruhining H5 protoni uchta dublet d.d.d. (5.76 m.u., $J=17.0, 10.2, 7.9$ Gs), H6 protonlari dd. (5.09 m.u., $d(J=10.2$ Gs), 5.18 m.u., $d(J=17.0$ Gs)) va NH protonlari 8.34, t ($J=6.6$ Gs) ko'rinishida namoyon bo'ladi. HMBC δC (2J (C-H) SSTKni δC 45.91 da to'rtlamchi uglerod bilan δH 8.34, 3.99, 3.32 va 3.39 o'rtasidagi spin ta'sirlashuv konstantalari 1H, 3H, 4H hamda δC 164.63, 43.81, 136.18 va 117.10 uglerod atomi δH 3.99 o'rtasidagi spin ta'sirlashuv konstantalari osongina barcha atomlar o'rnini aniqlash imkonini beradi (5-jadval).

5-jadval

Arundazetinning YaMR ^1H va ^{13}C , HMBC kimyoviy siljish ma'lumotlari

Atom C	δ_C	δ_H (J/Gs)	HMBC (H→C)
1	-	8.34	
2	164.63	-	-
3	45.91	3.99, k (7.6)	2, 4, 5, 6
4	43.81	3.32, m	2, 3, 5
	-	3.39, m	2, 3, 5
5	136.18	5.76, d.d.d. (17.0, 10.2, 7.9)	3, 4
6	117.10	5.09, d (10.2)	3
	-	5.18, d (17.0)	3, 5

Adabiyotlarda 3-vinilazetididin-2-on sintetik yo‘l bilan olingan lekin optik faollikni ko‘rsatadigan markaz bo‘lishiga qaramasdan sintez yo‘li bilan olingan 3-vinilazetididin-2-on ratsemik aralashma holatida bo‘lib, optik faollikni namoyish etmagan. Bundan tashqari sintetik yo‘l bilan olingan modda suyuqlanish harorati va eruvchiligida biz tabiiy holda o‘simlikdan ajratib olgan moddada butkul farq qiladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, sintetik yo‘l bilan olingan modda ikkita stereoizomerlari aralashmasidan iborat bo‘lib, biz tomondan *Arundo donax* L. o‘simligi ildizidan ajratib olingan 3-vinilazetididin-2-on optik faollikni namoyon qiladi $[\alpha]_D^{22} +175$ (DMCO) va u *Arundo donax* L. o‘simligi ildizidan ajratib olingan yangi azetididin tipidagi modda hisoblanadi.



5-rasm: Arundazetin tuzilishi

Arundazetin tuzilishi IQ, mass, YaMR ^1H , ^{13}C va qo‘shimcha tajribalar HMBC, HMQC va COSY spektrlar ma‘lumotlariga asosan 3-vinyl-2-one azetididin ekanligini aniqlandi va **Arundazetin** deb nomlandi (5-rasm).

***Arundo donax* L. o‘simligining lipid va polisaxaridlari**

Lipidlarni o‘rganish. *A. donax* L.ning havoda quritilgan barglari va qurigan ildizlaridan olingan lipidlar birinchi marta tekshirildi. Neytral lipidlar (NL) barglardan 1,76% va ildizlardan 0,82% unum bilan maydalangan namunalardan ajratilgan. Ekstraktdan NL ajratib olingandan so‘ng, NL qoldiqlari, glikolipidlar (GL) va fosfolipidlardan (PL) tashkil topgan qutbli lipidlar (QL) ajratildi. Qutbli lipidlar (QL) unumi barglardan 0,89%, ildizlardan 0,47% ni tashkil etdi. Shunday qilib, *A. donax* L. barglarida 2,65%, ildizlarida esa 1,29% umumiy lipidlar mavjud. Keyinchalik, o‘simlikning NL va QL tarkibidagi yog‘ kislotalari tarkibi aniqladi. Buning uchun yog‘ kislotalari ishqoriy gidroliz yo‘li bilan lipidlardan ajratildi va ularning metil efirlari olindi, ular GX (Gaz xromatografiyasi) tomonidan tahlil qilindi; Olingan natijalar 6 va 7-jadvalda keltirilgan.

6-Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, *A. donax* L.ning quritilgan barglarining neytral lipidlari 13 ta, ildizlarning neytral lipidlari esa 15 ta yog‘ kislotalarini o‘z ichiga oladi, shu bilan birga quritilgan barglar va ildizlarning yog‘ kislotalari tarkibida asosiy kislota to‘yingan palmitin kislotasi 16:0 bo‘lib, barglardagi miqdori deyarli 50%, ildizlarda esa 40,68%; yana bir to‘yingan kislota (stearin kislotasi 18:0) ildizlarda sezilarli miqdorda (16,74%) mavjud, shuning uchun neytral lipidlardagi yog‘ kislotalarining umumiy to‘yinganligi deyarli 70% ga (barglar) yetdi. To‘yinmagan yog‘ kislotalari barglarida oleyin va α -linolein kislotalarning,

shuningdek ω6-linolein kislotalarning yig'indisi deyarli teng miqdorda bo'lib - har biri 13%, ildizlarda esa ω6-linolein kislota ustunlik qiladi (21,78%).

6-jadval

A. *donax* L. ildizlari va barglarining neytral lipidlarning yog' kislotalari tarkibi, GX, kislotalar og'irligi bo'yicha %

Yog' kislotasi	Barglari	Ildiz	Yog' kislotasi	Barglari	Ildiz
10:0		0.43	18:1, 18:3n3*	12.89	9.17
12:0	2.70	0.30	18:2n6	13.07	21.78
14:0	3.55	2.49	20:0	4.06	1.39
15:0	1.21	1.62	20:1	1.59	0.58
Palmitin kislota	49.46	40.68	22:0	1.31	1.06
16:1	2.91	1.13	24:0	Mavjud emas	1.13
17:0	Iz	1.50	Σ	69.54	67.34
Stearin kislota	7.25	16.74	Σ	30.46	32.66

*Bir cho'qqida ko'rinadi

7-Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, A. *donax* L. barglari va ildizlari qutbli lipidlarining yog' kislotalari neytral lipidlarning yog' kislotalari (13-15 komponent), yog' kislotalari bilan deyarli bir xil sifat tarkibiga ega. Ulardan asosiy to'yinmagan kislotalarning miqdoriy nisbatlarini saqlab qolgan, Bundan tashqari, barglarning qutbli lipidlaridagi kislota 16:0 miqdori neytral lipidlarga qaraganda 1,5 baravar yuqori va deyarli 75% ni tashkil etadi. Ildizlarning qutbli lipidlarida 18:1 va 18:3 to'yinmagan kislotalar yig'indisining 15,49%, barglarda esa bu kislotalar 3 baravar kam.

7-jadval

A. *donax* L. ildizlari va barglaridagi qutbli lipidlarning yog' kislotalarining tarkibi, GX, kislotalar og'irligi bo'yicha %

Yog' kislotasi	Barglari	Ildiz	Yog' kislotasi	Barglari	Ildiz
12:0	0.85	yuq	18:2n6	1.91	7,08
14:0	1.76	1.96	20:0	1.05	0,97
15:0	1.28	2.25	20:1	2.13	2,20
16:0	74.91	54.46	22:0	yuq	0,86
16:1	4.20	1.71	24:0	yuq	0,78
17:0	0.85	1.19	Σ	86.39	73,52
18:0	5.79	11.05	Σ	13.16	26,48
18:1, 18:3n3*	5.27	15.49			

*Bir cho'qqida ko'rinadi

Namunalardan neytral va qutubli lipidlar adabiyotdagi usullardan foydalanib ajratildi. Lipidlar yog' kislotalarini ajratish uchun adabiyotdagi usulga muvofiq gidrolizlandi. Yog' kislotalari diazometan bilan metillanadi. Olingan metil efirlari silikagelda YuQX yordamida aralashmalardan tozalandi va gaz xromatografiyasi bilan tahlil qilindi. Metil efirlarining Gaz analizator tahlili uchun olov ionizatsiyasi detektor bilan Agilent Technologies 6890 N xromatografi ishlatildi. Yog' kislotalari

adabiyot ma'lumotlari va o'zimizni oldingi ma'lumotlarimiz yordamida, shuningdek, standartlar bilan taqqoslash orqali aniqlandi.

Shunday qilib, *A. donax* L. ning quritilgan barglari va quritilgan ildizlarida oz miqdorda umumiy lipidlar mavjud (bargida 2,65%; ildizda 1,29%). Ularning yog' kislotalari umumiy to'yinmaganlik darajasi yuqori (67,3-86,4%), palmitin kislotasining unumi 40,68-74,91% ni tashkil etadi.

Polisaxaridlarni o'rganish. Polisaxaridlarning turli guruhlarini yer usti qisimlaridan va ildizlardan ajratib olish avvalroq tavsiflangan usul bo'yicha amalga oshirildi. Xromatografik tahlilga ko'ra, spirtida eruvchan shakar (SES-1 va SES-2) glyukoza va saxaroza mavjud. Suvda eruvchan polisaxaridlar (SEP-1 va SEP -2) suv bilan ekstraksiya qilindi, Suvda eruvchan polisaxaridlar ajratilgandan so'ng, pektin moddalari (PM-1 va PM-2) oksalat kislotasi va ammoniy oksalat eritmaları (0,5%) bilan ekstraksiya qilindi. Gemisellyulozalar (GMS -1 va GMS -2) KOH eritmasi (5%) bilan ajratilgan. Ajratilgan polisaxaridlarning monosaxarid tarkibi to'liq kislotali gidrolizdan so'ng xromatografik tahlil orqali aniqlandi. Hidrolizatlarining GX tahlili GX Plus-2010 xromatografida o'tkazildi. Polisaxaridlarning tarkibi va monosaxaridlar tarkibi 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yer ustki qismlari va ildizlarida polisaxaridlar, pektin moddalari va gemitsellyulozalar ustunlik qiladi. SEP -1 va SEP -2 qaymoqsimon amorf kukunlar edi. Monosaxaridlar tarkibi bo'yicha SEP neytral shakarlarning turli nisbatlarida va uron kislotalari mavjudligida farqlanadi.

Ildizlardan va yer ustki qismlaridan ajratilgan polisaxaridlarning IQ spektrlari intensivligi bo'yicha farq qiladigan o'xshash yutilish chiziqlarini o'z ichiga olgan. *A. donax* L. ildizlarining SEP ning monosaxarid tarkibida uron kislotalari yo'q edi, shuning uchun kompozitsiyadagi SEP yig'indisi neytral polisaxaridlarni o'z ichiga oladi.

8-jadval

Polisaxaridlar unumi va ularning monosaxarid tarkibi

Pektinlar turi	Unum, %	Monosaxarid qoldiqlarining nisbati, GX						UA
		Ram	Ara	Ksi	Man	Glu	Gal	
Yer ustki qismi								
SEP -1	2.1	1.5	3.5	3.0	-	1.0	3.0	+
PM -1	6.0	-	3.0	3.0	-	2.0	1.0	+
GMS -1	18.2	-	1.0	3.5	-	5.0	-	+
Ildiz								
SEP -2	3.2	1.0	2.8	1.3	-	3.2	4.1	-
PM -2	5.0	1.3	1.5	2.1	yuq	2.8	3.5	+
GMS -2	13.0	-	-	3.8	-	6.2	-	-

Pektin moddalari (PM-1 va PM-2) ochiq jigarrang kukunlar bo'lib, yopishqoq eritmalar hosil qilish uchun suvda eriydi; PM-1 ning 1% li suvli eritmasining nisbiy viskozitesi 3,5 poise, PM-2 esa 4,2 ga teng. Monomer tarkibiga ko'ra, PM-1

arabinoza, ksiloza va glyukoza ning yuqori miqdori bilan ajralib turardi va PM-2 da galaktoza mavjudligi kuzatildi. Neytral monosaxaridlar bilan bir qatorda pektin moddalarining gidrolizatlarida galakturon kislotasi mavjud edi. PM ning efirlanish darajasi (ED) titrimetrik tahlil orqali aniqlandi va PM-1 va PM-2 past efirlangan pektinlarga tegishli ekanligi aniqlandi (9-jadval).

9-jadval

A. *donax* L. ning pektin moddalarining titrimetrik ko'rsatkichlari

Pektinlar	Karboksil guruhi, %			Eterifikatsiyalanish darajasi, %
	Erkin	Murakkab efir bog'li	Umumiy miqdori	
PM-1	39.6	25.2	64.8	38.8
PM-2	22.5	23.0	45.5	50.5

Usul bo'yicha SEP, PM va GMS ning to'liq kislotali gidrolizi amalga oshirildi. Rang beruvchi moddalarni va uglevod bo'lmagan komponentlarni olib tashlash uchun *A. donax* L. ning ezilgan xom ashyolari (alohida) ikki marta metanol-xloroformning qaynab turgan aralashmasi bilan 1:1 bilan ishlov berildi. Quritilgan xom ashyo qaynab turgan 82°C etil spirti (1:6) bilan ekstraksiya qilingan, unda glyukoza, saxaroza va fruktoza yuqlari aniqlangan.

Suvda eruvchan polisaxaridlar (SEP-1 va SEP-2) sovuq suv bilan ekstraksiya yo'li bilan ajratildi, undan etil spirti bilan ishlov berish orqali cho'kma olindi va sentrifugalash yo'li bilan ajratildi. SEP -1 (2,1 g), SEP -2 (3,2 g) ning rentabelligi IQ spektrlari bilan tavsiflangan.

